



## XALQ DEPUTATLARI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING QARORI

2024-yil 6-avgust

VI-104-101-7-96-K/24

Kattaqo‘rg‘on tumani

### **Tumanda aholining sanitariya epidemiologiya osoyishtaligi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-iyuldagi “O‘zbekiston respublikasi sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4790-son Qarori ijrosini ta‘minlash hamda yuqumli kasalliklarga qarshi kurashda profilaktik tadbirlar samaradorligini oshirish maqsadida, shuningdek, tuman Sanitariya epidemiologiya osoyishtalik va jamoat salomatligi bo‘limi bosh vrachi U.Sag‘dullayevning hisobotini tanqidiy muhokama etib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq VI chaqiriq xalq deputatlari tuman Kengashining 104-sessiyasi

### **QAROR QILADI:**

1. Tuman Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo‘limi bosh vrachi U.Sag‘dullayevning “Tumanda aholining sanitariya epidemiologiya osoyishtaligi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida”gi hisoboti shartli qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashi kotibiyati (M.Teshayev)ga joriy yilning oktabr oyida tuman Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo‘limi tomonidan aholining sanitariya epidemiologiya osoyishtaligi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi hisobotini tuman Kengashi sessiyasi muhokamasiga qaytadan kiritish vazifasi yuklatilsin.

3. Tuman Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo‘limi (U.Sag‘dullayev)ga:

- tumandagi umumiy o‘rta ta‘lim maktabi hududidagi savdo do‘konlarida yuqori konsentratsiyalangan energetik ichimliklar sotilishini tartibga olish;

- yuqori konsentratsiyalangan energetik yoshlar salomatligiga zararli ta‘siri to‘g‘risida targ‘ibot tadbirlari olib borish;

- tumandagi umumta‘lim muassasalarida virusli gepatit tarqalishini oldini olishda shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilinishi yuzasidan profilaktik tadbirlarni kuchaytirish vazifasi yuklatilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining ta‘lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Qodirova), tuman hokimining o‘rinbosari O.Shirinov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



NASRIDDINOV  
JAMSHID  
TULKINOVICH